



## UMUMIY PEDAGOGIK FANIDA TALABALARNI BILIM, KO'NIKMALARI VA O'QUV NATIJALARINI DIAGNOSTIKASI

*Muratova Sh.I.*

*Qarshi Innovatsion Ta'lim Universiteti*

**Tayanch so'zlar:** bilim, ko'nikma, malaka, talaba, yondashuv, pedagogik diagnostika, an'anaviy usullar, pedagogik jarayonni optimallashtirish, o'qitish funktsiyasi.

**Ключевые слова:** знания, умения, квалификация, студент, подход, педагогическая диагностика, традиционные методы, оптимизация педагогического процесса, обучающая функция.

**Key words:** knowledge, skills, qualifications, student, approach, pedagogical diagnostics, traditional methods, optimization of the pedagogical process, teaching function.

Kirish. Hozirgi kunda turli soxalarni diagnostika qilishda, eng ko'p uchraydigani ta'lim tizimlarining rivojlanishiga va turlari o'qituvchilar va psixologlarning maxsus tadqiqotlari mavzusiga aylandi. Ushbu tadqiqotlar diagnostik qo'llab-quvvatlash tizimiga, pedagogik, ijtimoiy, psixologik diagnostika munosabatlariga bo'lgan ehtiyojni belgilaydi. Pedagogik diagnostika ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. «Pedagogik diagnostika» tushunchasi K.Ingenkamp tomonidan 1968 yilda tibbiy-psixologik diagnostika bilan bog'liq usuli bilan taklif qilingan. Bunga ko'ra pedagogik diagnostikaning vazifalari, maqsadi va qo'llanish doirasiga ko'ra mustaqildir.

**Material va tadqiqot usullari.** Bunga ko'ra pedagogik diagnostikaning vazifalari, maqsadi va qo'llanish doirasiga ko'ra mustaqildir. Bu tushuncha usullarini va qo'llanish jarayoni ko'p jihatdan psixologik diagnostikaga borib taqaladi. Shuningdek o'z navbatida bu jarayon tibbiyotning ko'plab usullari va modellarini o'z ichiga oladi. Ko'nikma - bu malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o'z-o'zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi hamda o'quvchilarda takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi. Shu jihatdan ko'nikma ongli faoliyatni tez, tejamlil, to'g'ri, kam jismoniy va aqliy kuch sarflagan holda bajarish



jarayonining natijasi hisoblanadi. O'quvchilarning ko'nikmasi o'zlashtirgan bilimlari asosida tarkib topadi. Ko'nikma quyidagi xususiyatlarga ega:

- bilim olishga odatlanish;
- axloqiy fazilatlarni o'zlashtirish;
- ijtimoiy jihatdan faollashib borish;
- yangiliklarni o'zlashtirishga qiziqish.

Bular umumiy oliy va o'rta ta'lim o'quvchilarining ko'nikmasini tashxis etishda mezonlar hisoblanadi. Bularning barchasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash hamda ularni rivojlantirib borish uchun asos hisoblanadi. Shu jihatdan bu jarayonda tashxis etish omilidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. G'arbda «Avitsenna» nomi bilan shuhrat qozongan Abu Ali ibn Sino hayotga, undagi borliqdagi savollarga o'z ma'naviyati bilan javob berar ekan shu jumlani aytib o'tgan:

“O'qituvchi matonatli sof vijdonli, rostgo'y, bolani tarbiyalash yo'llarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim.

Muallim o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim”

Diagnostika (pedagogik) didaktik jarayonning barcha holatlarini oydinlashtirish, uning natijalarini aniq belgilashdir. «Pedagogik diagnostika - pedagogikaning bir kichik bo'limi bo'lib, pedagogik jarayonning normal yoki deviant borishini tavsiflovchi belgilarni aniqlash qo'llash tamoyillari va usullarini o'rganadi. U shuningdek tashxis qo'yish tartibini belgilaydi». «Pedagogik diagnostika - muayyan pedagogik jarayonning sifatini baxolovchi, uning shart-sharoitlarini, kursni o'tkazish shartlari va olingan natijalarni aniq belgilashdir».

Umuman olganda pedagogik diagnostikaning vazifalari:

- pedagogik jarayonni optimallashtirish (ta'lim, tarbiya yoki boshqaruv sifatini baholash, ta'lim muassasasi ishidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlash);
- jamiyat va shaxs manfaatlaridan kelib chiqib, ta'lim natijalarini (ta'lim, boshqaruv) to'g'ri belgilashni ta'minlash;
- tanlangan mezonlarga asoslanib, pedagogik xatolarni minimallashtirish;
- ta'lim muassasasida talabalar va o'qituvchilarga yagona pedagogik pozitsiyalar va talablarni shakllantirishga ko'maklashish.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ataladi.

Ta'lim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash talabning o'zligini anglatishi uchun bir imkomyatdir.

### **Natijalar va ularning muxokamasi.**

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati naflida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

#### **Nima uchun baholash kerak?**

- o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o'tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- natijaga erishilganligini tasdiqlash uchun;
- talabalarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- o'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- talabalarni yutuqlarga qiziqtirish uchun;
- tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va otalarga ma'lumot berish uchun.

#### **Nimani baholash kerak?**

- nazariy bilimlarni;
- amaliy ko'nikma va malakalarni;
- xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarini.


#### **Qachon baholash kerak?**

- ta'lim jarayoni boshida (boshlang'ich baholash);
- ta'lim jarayoni davomida (joriy baholash);
- ta'lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

#### **Baholashning asosiy xususiyatlari:**

- ta'lim maqsadiga yo'nalganlik;
- muntazam o'tkazib borish;
- pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
- umumiy qabul qilingan natija standardiga asoslanganlik.

Shunday qilib umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda xalqaro ta'lim dasturlaridan foydalanish muhim o'rin tutadi.



Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, pedagogik diagnostika yordamida talabalarni bilim, ko'nikmalarni diagnostik nazoratini o'rganib chiqib, natijalarni olish hamda ma'naviy-ma'rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta'lim-tarbiya natijalari aniqlanadi. Tashxislashda nafaqat ta'lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o'zgarish dinamikasini ham nazarda tutish lozim. Shakllanib borayotgan demokratik huquqiy davlatning yoshlarga nisbatan amalga oshirayotgan siyosati yigit va qizlarga o'z qobiliyati va iste'dodini to'la ro'yobga chiqarishda, yangilanish va taraqqiyot jarayonlariga faolroq qo'shilishga yordam berishdan iboratdir. Shu jihatdan ta'lim-tarbiya jarayonini diagnostika qilishga zarurat oshmoqda. Yoshlarning kamolot darajasini diagnostika qilishda va xulqi dagi nuqsonlarni korreksiyalashda intellektual va tarbiyalanganlik darajasi orasidagi aloqadorlikni aniqlash, xalq pedagogikasi tajribalarini zamon talablari bilan uyg'unlashtirish, ta'lim-tarbiya tizimini qulaylashtirish, komil inson fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan milliy qadriyatlar va ilg'or metodikalar uzluksiz ta'lim tizimida tahsil olayotgan yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini takomillashtirishda muhim yo'nalish sifatida fikrlarni aytib o'tishimiz kerak.

**Adabiyotlar:**

1. Ингенкамп К. Педагогическая диагностика, пер. с нем. - М.: Педагогика, 1991. - 240с
2. Педагогическая диагностика в школе / Под ред. А.И. Кочетова - Мн., 1987
3. В.Х.XODJAYEV Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 154-157
4. Педагогический энциклопедический словарь. - М., 2002. С. 190
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloqT.: “O’qituvchi”. 1996 y. 206-bet.
6. Azizxo’jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006 Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. O’quv qo’llanma – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010y.

**РЕЗЮМЕ**

Maqolada talabalarning bilim, ko’nikma va o’quv natijalarini diagnostikasi zaruriyati to’g’risida fikr yuritilgan. O’quv faoliyatini samaradorligini oshirishda pedagogik diagnostika haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, o’quvchilarning bilimini oshirishda pedagogik diagnostikaning maqsadi pedagogik jarayonning borishini o’z vaqtida aniqlash, baholash samaradorligi bilan bog’liq holda tahlil qilinib, kasbiy pedagogik diagnostikasi maqsadlari, vazifalari va ish mazmuni keltirilgan. O’quv natijalarini diagnostikasini o’quv jarayonining talabalarning individual xususiyatlariga ta’sirining sharti, sharti va natijasi sifatida ko’rib chiqamiz.

**РЕЗЮМЕ**

В статье размышляется о необходимости диагностики знаний, умений и результатов обучения учащихся. Описаны отзывы о педагогической диагностике в повышении эффективности образовательной деятельности. Также при повышении знаний студентов анализируется цель педагогической диагностики в связи со своевременным определением хода педагогического процесса, эффективности оценки, а также представлены цели, задачи и содержание работы профессиональной педагогической диагностики. Давайте рассмотрим диагностику образовательных результатов как условие, обусловленность и результат влияния образовательного процесса на индивидуальные особенности учащихся.

**SUMMARY**

The article reflects on the need to diagnose the knowledge, skills and educational results of students. Feedback on pedagogical diagnostics in improving the effectiveness of educational activities is described. Also, in improving the knowledge of students, the purpose of pedagogical Diagnostics is analyzed in connection with the timely determination of the course of the pedagogical process, the effectiveness of the assessment, and the goals, objectives and content of the work of professional pedagogical diagnostics are presented. Let’s consider the diagnosis of educational results as a condition, condition and result of the influence of the educational process on the individual characteristics of students.